
OLTIARIQLIKLAR KARATECHI DOSTONBEK OTABOLAYEVNI TANTANALI RAVISHDA KUTIB OLDILAR

Bugun sportchining xonadoni tuman hokimligi vakillari, mahalla nuroniylari va faol yoshlar bilan gavjum bo'ldi. Boisi yaqindagina AQShda bo'lib o'tgan Butunjahon o'yinlarida Dostonbek Otabolayev bronza medalini qo'lga kiritgan edi. Faollar sportchini tantanali qarshi oldilar.



Ma'lumot o'rnida aytish o'rinliki, hamyurtimiz ushbu musobaqaning karate bo'yicha bahslarida 75 kilogram vaznda gilamga chiqdi. Dastlab Dostonbek guruh bahslarida Tomas Skott (AQSh), Gabor Xarshpataki (Vengriya) hamda Xsyu Vey-Chunga (Xitoy Taybeyi) qarshi bellashuvlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, ikkinchi o'rin bilan yarim finalga yuksaldi.



Final yo'llanmasi uchun bahsda ukrainalik Stanislav Xorunaga imkoniyatni boy berib qo'ygan sportchimiz, bronza medali uchun kurashda AQShlik Tomas Skottni mag'lub etdi.

Marosimda so'z olganlar sportchining kelgusi faoliyatiga omad va zafarlar tilashdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-21 15:49:21